N.M.Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi"

Karp M.V [5] Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

O.Sitnikovaning fikricha, [6] "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan subyekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Yu.Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, solishtirma tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur qonun hujjatlari bilan Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

2026-yil uchun asosiy soliq stavkalari, jumladan QQS 12 foiz, foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, daromad solig'i 12 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i 0,95 foiz, ijtimoiy soliq 12 foiz (budjet tashkilotlariga 25 foiz), aylanmadan olinadigan soliq 4 foiz miqdorida o'zgarishsiz qoldirildi.

Kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni shartli ravishda 4 ta yo'nalishga bo'lib ko'rib chiqamiz. Xususan: 1-yo'nalish. Tadbirkorlar tomonidan "5-ochiq muloqot"da ilgari surilgan takliflarni amaliyotga joriy qilish.

Mazkur yo'nalishda quyidagilar belgilandi:

a) Aylanmadan olinadigan soliq to'lashdan ilk marta qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i to'lashga o'tayotgan tadbirkorlarga:

- bir yil davomida foyda solig'ini to'lashdan ozod qilindi;
- QQS to'lovchisi bo'lish tartibini buzganlik uchun 1 yil davomida jarima qo'llanilmaydi
- ularning buxgalteriya xizmatlari xarajatlari 6 oy davomida har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravaridan (yoki 4,5 million so'mdan) oshmagan qismini to'layotgan soliq to'lovlari hisobidan chegirib tashlash mumkin bo'ladi.

Buning natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 1,2 trillion so'm mablag' qolmoqda.

b) foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadining chegaraviy miqdori 10 mlrd so'mdan

20 mlrd so'mgacha oshirilmoqda;

v) Korxonalar o'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini, xususan, elektr, gaz, issiqlik ta'minoti, suv ta'minoti, kanalizatsiya va yo'l qurib, tegishli tarmoq korxonalariga bepul beradigan bo'lsa, korxonaning ushbu xarajatlarini foyda solig'idan chegirish imkoniyati berildi;

g) tadbirkorlarga sayyor soliq tekshiruvi bo'yicha moliyaviy jarima summasini 6 oy ichida teng ulushlarda to'lash imkoniyati berildi;



d) kameral soliq tekshiruvi o'tkazilgan davrda aynan bir xil holat bo'yicha qayta kameral soliq tekshiruvi hamda soliq auditi o'tkazilayotgan davrda "avtokameral" o'tkazmaydi;

ye) mulk, yer, qo'shilgan qiymat, aylanmadan olinadigan, daromad va ijtimoiy soliq bo'yicha hisobotlarni soliq organlari shakllantiradi;

Mazkur yangi tartib bo'yicha soliq organlari o'zi hisobotni shakllantirib beradi va hisobot muddatidan kechiktirilmagan holda soliq to'lovchilar 5 kungacha uni o'zgartirishlari mumkin. Agar shu muddatda o'zgartirish kiritilmasa, bu soliq to'lovchining hisobotga roziligini bildiradi.

yo) milliy va xorijiy marketpleyslar orqali eksport qilingan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berilishi belgilandi;

Endilikda korxonalar o'zlarining tovarlarini "Uzum market", "Wildberries", "Ozon" kabi marketpleyslar orqali chet davlatga sotsa, bu holatda ham QQSni nol stavkasi bo'yicha soliq qaytarib beriladi.

j) soliq to'lovchining soliq qarzini uning debitorlaridan undirish tartibini joriy etiladi. Bunda soliq qarzi mavjud tadbirkorlik subyektlari soliq organiga soliq qarzini o'zining debitorlari hisobidan undirishni so'rab murojaat qilishi huquqi beriladi.

Ushbu tartib soliq organiga murojaat qilgan tadbirkor va uning debitorlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

z) tadbirkorlarga bir nechta hisobotlar taqdim etilmaganda barcha taqdim etilmagan hisobotlar bo'yicha bitta jarima qo'llaniladi;

Amalda soliq to'lovchilarga o'z vaqtida topshirilmagan har bir soliq hisoboti uchun alohida jarima qo'llaniladi. Jarima miqdori fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari (1,2 mln so'm), mansabdor shaxslarga esa 10 baravarini (4,1 mln so'm) tashkil etadi.

i) soliq hisobotini kechiktirib taqdim etgani uchun ma'muriy jarima miqdori kichik tadbirkorlik subyektlarining mansabdor shaxslariga nisbatan BHMning 10 baravaridan 3 baravariga (1,2 mln so'm) hamda fuqarolarga BHMning 3 baravaridan 1 baravariga (412 ming so'm) tushirildi;

Amaldagi qonunchilikka asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga

YaTT, mikrofirma va kichik korxonalar kiradi.

k) oxirgi 3 oyda soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etib kelgan tadbirkorlarga hisobotni 5 kungacha kechiktirib taqdim etsa ma'muriy jarima qo'llamaslik belgilandi;

l) QQS guvohnomasining amal qilishini 30 kungacha soliq organi, 30 kundan ortiq muddatga sud tomonidan to'xtatish mumkin ;

m) aylanmasi 10 mlrd.so'mgacha bo'lgan va soliq xavfi o'rta darajadagi tadbirkorlarni ixtiyoriy tugatishda xulosa berish vakolatini soliq organidan xususiy auditorlik tashkiloti yoki soliq maslahatchilariga o'tkazish.

Bugungi kungacha bunday korxonalar faqat soliq organlari tomonidan yakuniy tekshiruv o'tkazilgan holda tugatilar edi.

n) hisobvara-fakturalarning xavf darajasiga asosan QQSni hisobga olish tartibini joriy etilmoqda;

Bunda hisobvara-fakturalar xavf darajasi sun'iy intellekt

(inson omilisiz) orqali aniqlanadi va jami rasmiylashtirilgan hisobvara-fakturalar orasida yuqori xavf darajasining ulushi 10 foizdan oshmasligi nazarda tutilgan.

Tovarlar (xizmatlar) xaridoriga o'ziga yuborilgan hisobvara-fakturaning xavf darajasini ko'rish imkoniyati taqdim etiladi. Yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan hisobvara-fakturalar bo'yicha QQSni hisobga olish tovarlar (xizmatlar) xaridori tomonidan soliq agenti sifatida QQSni budjetga to'langanda hisobga olish amalga oshiriladi.

o) elektron to'lov tizimlari va to'lov tashkilotlarining raqamli platformalarida generatsiya qilingan maxsus QR kodlarni qo'llash

nazorat-kassa texnikasini, hisob-kitob terminallarini qo'llash tartibiga tenglashtirilmoqda.

Endilikda agar tadbirkorlarning savdo yoki xizmat ko'rsatish joylarida xaridorlar uchun maxsus QR kodlar mavjud emasligi 5 million so'm miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

2-yo'nalish. 2026-yil uchun soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va soliq ma'murchiligini takomillashtirish.

Soliq islohotlarini izchil davom ettirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish doirasida quyidagilar nazarda tutilgan:

a) elektron tijorat subyektlari uchun foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 15 foizga hamda aylanmadan olinadigan soliq stavkasini 3 foizdan 4 foizga tenglashtirildi;

b) Resurs soliqlari bo'yicha quyidagilar belgilandi:

– yuridik shaxslar tomonidan mol-mulk va yer solig'i imtiyozlarini maqsadli ko'rsatkichlar asosida qo'llash belgilandi.

Maqsadli ko'rsatkich: (1) yuridik shaxsning tovarlar (xizmatlar) aylanmasi imtiyoz summasidan ko'p bo'lishi va (2) eng kamida 3 nafar xodimga ega bo'lishi hamda ishchilariga eng kam ish haqi miqdorining 2 baravaridan kam bo'lmagan ish haqi hisoblanishi belgilandi.



Ushbu tartib 2026-yil yakunlariga ko'ra 2027-yildan boshlab soliq to'lovchilarga qo'llaniladi. Ushbu tartibni qo'llashning ayrim jihatlarini bo'yicha tartib ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

– noturar obyektlar bo'yicha mol–mulk solig'i bazasini aniqlashdagi 1 kv.m uchun o'rnatilgan minimal qiymat miqdori 7 %ga indeksatsiya qilindi;

Ushbu eng kam qiymat Toshkent shahri uchun 3,53 mln.so'm (amalda 3,3 mln.so'm), Nukus shahri va viloyat markazlari uchun – 2,35 mln.so'm (amalda 2,2 mln.so'm), boshqa joylar uchun – 1,39 mln.so'm (amalda 1,3 mln.so'm) miqdorda belgilandi.

– yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer solig'ining bazaviy stavkalarini 7 %ga indeksatsiya qilindi;

Bunda, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdorini xalq deputatlari Kengashlari tuman va shaharlarning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida bazaviy soliq stavkasiga 0,5 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash vakolati beriladi.

– 2026-yil 1-yanvardan boshlab qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan stavkaga Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlari 0,5 dan 1,2 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo'llash vakolati beriladi;

– issiqxona xo'jaliklari egallagan yerlar uchun yer solig'ini qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarga belgilangan stavkalarda hisoblanadi;

– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 7 %ga indeksatsiya qilindi;

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llash vakolati beriladi.

Amalda, tuman va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilandi.

Shuningdek, 2027-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlari lazerli tekislanmaganda, suv solig'i uchun soliq stavkalariga 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsientni qo'llash vakolati beriladi;

v) kon–kimyo xom ashyosi, noruda qurilish materiallari bo'yicha qat'iy belgilangan yer qat'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini 7 %ga indeksatsiya qilindi;

g) Aksiz solig'i bo'yicha:

– tamaki va neft mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalarini 7 %ga indeksatsiya qilindi;

– 2026-yil 1-apreldan neft mahsulotlariga aksiz solig'i stavkalari 7 %ga indeksatsiya qilindi;

– 2026-yil 1-apreldan boshlab iste'mol qilishga tayyor 1 kg kartoshka chipslariga 15 ming so'm miqdorida aksiz solig'ini joriy etish;

Ushbu aksiz solig'i kartoshka chipslarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni olib kiruvchilar tomonidan to'lanishi belgilandi.

d) yo'l harakati qoidalarini buzilishini qayd etish bo'yicha tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga QQSni hisoblash tartibiga aniqliklar kiritildi;

Bunday xizmatlar aylanmasiga QQS hisoblab chiqarilishi va soliq bazasi QQSni o'z ichiga olgan haq summasidan kelib chiqib aniqlanishi ko'zda tutilgan.

ye) tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuvni kamaytirish va tekshiruvlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida 2026-yil 1-iyulidan sayyor soliq tekshiruvdan o'tkazishda soliq xodimlarining bodikameradan foydalanishi majburiy bo'ladi;

yo) endi kameral soliq tekshiruvda soliq to'lovchilar tomonidan qo'shimcha asoslantiruvchi hujjatlar taqdim etilganda soliq organlari tomonidan ularning ko'rib chiqilishi majburiy hisoblanib, huquqbuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilganda tadbirkorlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

j) soxta tadbirkorlik hamda asossiz soliq to'lashdan qochish holatlariga chek qo'yish maqsadida import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining 9 oy (go'sht va ho'l meva-sabzavotlarning 3 oy) davomida sotilmaganligi va qiymati BHMning 500 baravaridan (206 mln.so'm) ortiq bo'lgan ushbu mahsulotlar qoldiqda turganligi holati sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

z) shuningdek, ko'chmas mulk va qurilish materiallari bozorini tartibga solish maqsadida ko'chmas mulk obyektlari va qurilish materiallari bo'yicha soliq bazasi ushbu tovarlarning bozor bahosidan kelib chiqib aniqlanishi belgilandi.

Birgina 2024-yil mobaynida 1,8 mln.kv.m maydonga ega bo'lgan 22,9 mingga yaqin turar joylarning haqiqiy narxlarini pasaytirilib ko'rsatilishi hisobiga 4,4 trln so'm soliq bazasi (1,1 trln.so'm soliq summasi) kamaytirilgan.

Misol uchun, Namangandagi MChJ tomonidan bitta uydagi 69,0 kv.metrli kvartirani 1 m2 uchun 1,1 mln so'mdan (76 mln so'm) sotilgan bo'lsa, xuddi shunday maydondagi kvartira 1 m2 uchun 6,0 mln.so'mdan (420,0 mln.so'm) sotilgan.



i) korxonalarga kirim qilinayotgan tovarlarga rasmiy maqom berish maqsadida qurilish va savdo sohalaridagi tadbirkorlar tomonidan o'zlarining ustav kapitaliga kiritilgan tovarlar to'g'risidagi ma'lumotlar (EHF, onlayn nazorat kassa texnikasi cheki, bojxona yuk deklaratsiyasi, notarius tomonidan tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi va boshqa hujjatlar) hisobi yuritiladi va ustavga o'zgartirish kiritilgandan so'ng 15 kun muddatda shaxsiy kabinet orqali soliq organlari ma'lumotlar bazasida aks ettirilishi belgilandi.

k) soliqlar yoki yig'implarni to'lamaslik bo'yicha jinoyat qilgan tadbirkorlarga QQS summasini tekshiruvlarsiz tezlashtirilgan tarzda qaytarish tartibi qo'llanilmaydi

Amalda QQSning tezlashtirilgan tartibi 7 kunni, "AAA" reytingidagi ega bo'lganlar uchun esa 1 kunni tashkil qiladi.

3—yo'nalish. Tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va qo'shimcha yengilliklar taqdim etish.

Tadbirkorlarni yanada qo'llab-quvvatlash hamda ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida bir qator yengilliklar belgilandi. Xususan,

a) 2026-yil 1-yanvardan boshlab:

— yillik aylanmasi 1 mlrd.so'mgacha bo'lgan YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi.

Amalda 100 mln.so'mgacha daromaddan YaTT oyiga 65 ming so'mdan 1 mln so'mgacha soliq to'laydi, o'zini band qilgan shaxslar soliqdan ozod qilingan (mazkur tartiblar bekor qilinmoqda).

2026-yil 1-yanvardan YaTT va o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'z faoliyatini ixtiyoriy ravishda raqamli platformalari orqali amalga oshirishi mumkin. Bunda ushbu raqamli platforma ro'yxatdan o'tish va to'xtatib turish, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish va yuborish, QR kodlar orqali to'lovlarni qabul qilish hamda elektron hisobvara-fakturalar rasmiylashtirish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

— qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining shaffof faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasi uchun QQSning «nol» stavkasi joriy etilmoqda va ularga "zachetga" olingan QQS summasi 3 kun muddatda avtomatik qaytarib berilishi ko'zda tutilmoqda.

Amalda ushbu subyektlar uchun QQS stavkasi 12 foiz bo'lib, "zachetga" olingan QQS summasi 30 kungacha qaytarib beriladi.

Hisob kitoblarga ko'ra buning natijasida 13,5 mingta qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ixtiyorida 700 milliard so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

— zargarlik buyumlari, qimmatbaho metall va toshlardan yasalgan yarim tayyor mahsulotlarga QQS imtiyozini bekor qilinmoqda;

Bunda zargarlik mahsulotini ishlab chiqaruvchilar tomonidan QQSni ushbu mahsulot narxi va uning tarkibidagi qimmatbaho metall yoki toshlar narxi o'rtasidagi ijobiy farqdan to'lash belgilandi;

2026-yil 1-yanvardan boshlab zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish yoki ularni sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari daromadidan qat'i nazar, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

— foyda solig'i bo'yicha daromadlarga asoslangan imtiyoz o'rniga xarajatlarga asoslangan imtiyozlarga o'tish mexanizmi joriy etilmoqda.

Bunda foyda solig'i imtiyozlari amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish tarzida 3-yildan oshmagan muddatga taqdim etilishi mumkin bo'ladi. 2026-yil 1-yanvarga qadar taqdim etilgan foyda solig'i imtiyozlari amaldagi tartibda qo'llaniladi.

Misol uchun, "A" korxona foyda solig'i bo'yicha tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqidan foydalanishga haqli. Uning 2025 yildagi jami daromadlari 63 mlrd so'mni, jami xarajatlari 52 mlrd.so'mni tashkil etgan. Korxonaning 36 mlrd so'mlik asosiy vositalar qoldig'i mavjud.

Taklif etilayotgan tartibga ko'ra, korxona 11 mlrd.so'm (63–52 mlrd.so'm) miqdorida tezlashtirilgan amortizatsiya summasini qo'llashi mumkin bo'ladi hamda korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi "nol"ga teng bo'ladi. Xususan, korxona kelgusi 3 yil ichida qariyb 33 mlrd.so'm (yiliga o'rtacha 11 mlrd so'm) yoki 2025-yil 1-yanvardagi qoldiqqa nisbatan asosiy vositalarning 91 foizini tezlashtirilgan amortizatsiya qilish orqali foyda solig'ini to'lamaydi.

— meva—sabzavotlarni zamonaviy qadoqda sotuvchilarga foyda va ijtimoiy soliqni 1 foiz etib belgilanmoqda; Tadbirkorlar ixtiyorida 17,9 mlrd.so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

— avtomobillarni quvvatlash stansiyalarini foyda va aylanmadan olinadigan soliqdan ozod qilish, mulk va yer solig'ini 1 foiz miqdorda to'lash belgilandi;

Tadbirkorlar ixtiyorida 5,9 mlrd.so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

— mahalliy sanoat korxonalarining har bir xodimni tashish va ovqatlantirish uchun 412 ming so'mgacha xarajatlari ijtimoiy soliqdan chegiriladi;

Tadbirkorlar ixtiyorida 73,1 mlrd.so'm mablag' qolishi kutilmoqda.



– issiqxona xo'jaliklariga ijtimoiy soliqni 1 foiz belgilash, kredit to'lanmagani uchun bank balansiga o'tgan issiqxonalar va garovda turgan mulklar sotilganda QQSDan, mulklar bank balansiga o'tgandan sotilgunicha yer solig'idan ozod etish;

Tadbirkorlar ixtiyorida 279,7 mlrd.so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

v) 2028-yil 1-sentabrgacha paxta-to'qimachilik klasterlari, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalariga ijtimoiy soliq 1 foiz qilib belgilanmoqda;

Tadbirkorlar ixtiyorida 275 mlrd.so'm mablag' qolishi kutilmoqda.

g) 2030-yil 1-yanvarga qadar:

– milliy film va serial hamda bolalar kontentini yaratuvchilar tadbirkorlar foyda solig'idan ozod qilmoqda va ular uchun ijtimoiy soliq 1 foiz qilindi;

4-yo'nalish. Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish yuzasidan kiritilgan yangiliklar.

Bugungi kunda mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, biznesga yangi imkoniyatlarni yaratish, shuningdek fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.2025-yildagi "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-246-son Farmoni mazkur yo'nalishda qabul qilingan muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 505 trln. so'mni yoki 34,8 foizni, shundan 122 trln.so'm yoki 24,1 foizi yashirin hamda 384 trln.so'm yoki 75,9 foizi norasmiy iqtisodiyot hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi bunday omillar davlat budjetida katta yo'qotishlar yuzaga keltirib, davlatning bir qator funksiyalarini to'laqonli amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Ya'ni buning hisobiga davlat maktablar, shifoxonalar, yo'llarni qo'rish va transport infratuzilmasini tubdan modernizatsiya qilishi mumkin edi.

Birgina, 2024-yilda mamlakat ijtimoiy xarajatlarga 152,3 trln so'm mablag' ajratgan bo'lib, shundan ta'limga 71,2 trln so'm, sog'liqni saqlashga 36,0 trln so'm madaniyat va sportga 5,9 trln.so'm, pensiya va nafaqalar uchun 31,6 trln.so'm mablag'lar sarflangan.

Yashirin iqtisodiyot asosan bu oldi-sotdi va boshqa hisob-kitoblar naqd pulda amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababdan ko'plab rivojlangan davlatlarda naqd pulda hisob-kitoblar 3-5 foizni tashkil qiladi. 2024-yilda O'zbekistonda muomaladagi naqd pul ulushi 19,2 foizni tashkil qilgan. 2026-yil 1-apreldan elektr, tabiiy gaz, ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to'lovlar bank kartalari yoki elektron to'lov tizimlari orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Har xil soxta inspektorlar kelib mazkur xizmatlar uchun to'lovlarni naqd pulda olib sizga soxta kvitansiyalar yozib ketishini oldini oladi. Bundan tashqari, to'lovlarni uydan chiqmasdan elektron to'lov vositalari orqali yoki joyiga borib bank kartalari orqali inson omilisiz to'lovni amalga oshirish imkonini beradi. Xuddi shunday tizim, davlat xizmatlaridan foydalanishda ham joriy qilinadi. Yana bir misol, aholining ko'p qismi alkogol va tamaki mahsulotlarini naqd pulda sotib oladi. Uning sifatiga va haqqoniyligiga hech kim kafolat bermaydi. Ushbu mahsulotlarni sotib olishni naqdsiz shaklda o'tkazilishi bu xavf xatarni oldini oladi. Shuningdek, transport vositalariga yoqilg'i quyish va elektr zaryadlash xizmatlaridan foydalanishda ham to'lovlar naqdsiz bo'ladi. Bundan tashqari, ko'chmas mulk, uy-joylarni hamda ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan avtotransport vositalarini sotish yoki sotib olishda naqd pulda hisob-kitob qilib ko'pchilik aholimiz firibgarlarni qo'lga tushib qolmoqda. Ya'ni, bu yo'nalishda ham naqdsiz to'lovga o'tish ham firibgarlik holatlarini oldini olish va kamaytirishga xizmat qiladi. Ma'lumot uchun, 2024-yilda 83 trln.so'mlik ko'chmas mulklar va 75 trln.so'mlik avtotransportlar oldi-sotdisi amalga oshirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari, soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'pkomponentli mualliflik yondashuvini shakllantirishga imkon berdi, xususan:

- umuman iqtisodiyotga soliq yukining darajasini real baholash uchun-soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli oborot, obyektlarni, alohida soliq to'lovchilarning tarmoqlari va guruhlar bo'yicha yondashishning ahamiyatligi;
- davlat faoliyatini ta'minlash uchun davlat budjetining daromad qismida soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini kafolatlangan holda ta'minlash;
- soliq risklarini kamaytirish;
- resurs yondoshuvidan foydalanish va maqsadli yondashuv orqali amalga oshirilayotgan soliq siyosatining sifati, belgilangan maqsadlarga erishish. Yuqorida keltirib o'tilgan taklif O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va raqamlashtirish amaliyotga joriy qilinishi soliq ma'murchiligini rivojlantirishga olib keladi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Жўраев А., Сафаров Ф. Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Iqtisod-moliya”, 2005. 48-бет
2. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учеб. пособие. — М.: Магистр, 2007. — С. 99—100.
3. Камалнев Тимур Шамилович. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.
4. И.А.Майбуров Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурава.-М.: юнити-дана,2007.-655с.).
5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009. с.12.
6. Н.М.Дементева. налоговая политика государства. https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.,
7. Карп М.В. Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. — М.: Юнити-дана, 2001.— 39 с.
8. Ситникова Олга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.
9. Даркина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37) • 2019.
10. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
